



GLOBAL MOLIVAVIY BEQARORLIK SHAROITIDA JAHON SUG'URTA BOZORIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR

Xalikov Umid Raxmatullaevich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi
umid.khalikov@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss2/268

Annotatsiya: Ushbu maqolada jahon sug'urta bozori va milliy sug'urta bozorlarining 1981-2021 yillar oralig'idagi transformatsiya jarayonlari, ushbu jarayondagi davom etgan tendensiyalar, milliy sug'urta bozorlari bilan jahon sug'urta bozori o'rtasida yuzaga kelgan o'zaro munosabatlar va ushbu munosabatlarning chuqurlashuvi, ushbu munosabatlar natijasida yuzaga kelgan ijobiy va salbiy holatlar tahlil qilingan. Maqolada 2009 yilda boshlangan xalqaro iqtisodiy inqiroz va pandemiya natijasida 2020 yilda yuzaga kelgan inqirozlarning global sug'urta bozoriga ta'sirining o'ziga xosliklari hamda ushbu inqirozlardan keyingi tendensiyalar tahlil qilingan. Tahlil etilgan davrda Shimoliy Amerika va EMEA mintaqalari davlatlari sug'urta bozorlarida o'sish darajasining asta-sekin pasayib, o'z o'rnida Osiyo mamlakatlari sug'urta bozorlarida va xususan Xitoy sug'urta bozorida o'sish yuqori darajada yuz berayotganligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta, sug'urta bozori, milliy sug'urta bozori, global sug'urta bozori, sug'urta bozorini transformatsiyalash, moliyaviy beqarorlik, hayot sug'urtasi, hayot sug'urtasidan boshqa sug'urta, sug'urta mukofoti.

Abstract: This article analyzes the transformation processes of the global insurance market and national insurance markets in the period from 1981 to 2021, current trends in this process, and interactions that have arisen between national insurance markets and the global insurance market. The deepening of the national and global insurance markets and the relationship between them, as well as the positive and negative circumstances arising from this relationship, were analyzed. The article analyzes the peculiarities of the influence of the international economic crisis of 2009 and the crisis of 2020, as a result, beginning in 2019, the pandemic and trends after these crises. During the analyzed period, the countries of North America and EMEA were based on the fact that there was a gradual decrease in growth rates in the insurance markets of these countries, while in Asian countries, in particular, the insurance market in China experienced a sharp increase.

Keywords: insurance, insurance market, national insurance market, global insurance market, insurance market transformation, financial instability, life insurance, non life insurance.

Абстрактный: В данной статье анализируются трансформационные процессы мирового страхового рынка и национальных страховых рынков в период с 1981 по 2021 год, текущие тенденции в этом процессе, взаимодействия, возникшие между национальными страховыми рынками и мировым страховым рынком. Были проанализированы углубление национального и мирового страховых рынков и взаимосвязь между ними, положительные и отрицательные обстоятельства, вытекающие из этой взаимосвязи. В статье анализируются особенности влияния международного экономического кризиса 2009 года и кризиса 2020 года в результате начавшегося в 2019 году пандемии, а также тенденции после этих кризисов. В течение анализируемого периода в государстве Северной Америки и EMEA основывались на том факте, что на страховых рынках данных государств наблюдалось постепенное снижение темпов роста, а в Азиатских странах, в частности, на страховом рынке Китая наблюдалось резкое повышение.

Ключевые слова: страхование, страховой рынок, национальный страховой рынок, глобальный страховой рынок, трансформация страхового рынка, финансовая нестабильность, страхование жизни, страхование иное, чем страхование жизни.

Kirish (Введение/ Introduction)

So'nggi o'n yilliklarda milliy sug'urta bozorlarining rivojlanishi jahon sug'urta bozorining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasiga ta'sir ko'rsatdi va bu uning rivojlanishidagi asosiy tendensiyalarni belgilab bergan ko'plab omillar bilan belgilanadi.

Bundan tashqari, global moliya bozori segmentlari va milliy bozorlarning o'zaro bog'liqligi ortib borishi bilan global moliyaviy beqarorlik kuchaymoqda, bu global sug'urta mukofotlari dinamikasida aks etadi: bu inqiroz yillarida o'zgaruvchanlik va salbiy o'sish sur'atlari yuz berganligini namoyish etdi. Shuni e'tiborga loyiqlik, 2020 yilgi pandemiya bilan bog'liq inqirozda global sug'urta mukofotlari hajmining dinamikasi avvalgi inqirozlar davridagi kabi dramatik darajaga etmadi (mukofotlarning o'sish sur'ati 1,05% ni tashkil etdi, 2009 yilgi inqirozda mukofotlar hajmi deyarli 2% ga kamaygan edi). Bizning fikrimizcha, bu dinamikaning sababi inqirozlar tabiatidagi farqlarda yotadi. 2009 yildagi inqirozning manbai iqtisodiyotning moliya sektori bo'lib, bunda jahon bank tizimi va jahon fond bozori eng jiddiy zarar ko'rgan edi. Moliya bozori sektorlarining o'zaro bog'liqligi mazkur krizisning sug'urta sektoriga ta'sir qilmasligi mumkin emas edi. COVID-19 pandemiyasi sabab bo'lgan 2020 yilgi inqirozga kelsak, uning ta'siri iqtisodiyotning real sektori va xizmat ko'rsatish korxonalarining ayrim turlari (turizm,

mehmonxona xo'jaligi, restoran va boshqalar) uchun eng sezilarli bo'ldi, ammo moliya sektori kamroq zarar ko'rdi.

Adabiyotlar tahlili (Обзор литературы/Literature review).

Kiber hujumlardan yo'qotishlar sug'urtalovchilarning kiber xavflar uchun to'lovlaridan sezilarli darajada oshadi: ma'lumotlar sizib chiqishining o'rtacha qiymati 3,92 million AQSh dollarini tashkil etadi va bunday hodisalar uchun AQSh sug'urtalovchilarning o'rtacha to'lovi taxminan 146 000 dollarni tashkil qiladi[1]. Global kiber sug'urta bozorining konsentratsiya darajasi juda yuqori: tuzilgan sug'urta shartnomalari bo'yicha kelib tushishi kutilayotgan sug'urta mukofotlarining 80% gacha qismi Shimoliy Amerika hissasiga to'g'ri keladi. Ushbu sug'urta mukofotlarining 80% dan ortiq qismi 20 eng yirik sug'urta kompaniyalari hissasiga to'g'ri keladi[1]. Kiber sug'urta bozorining global sug'urta mukofotlari umumiy hajmidagi ulushi kichikligicha qolmoqda - mulkni sug'urtalash bozorining taxminan 2% va javobgarlikni sug'urtalash bozorining taxminan 3%[2]. Kiber sug'urtaga talab asosan rivojlangan mamlakatlarda kuzatilmoqda va uning kirib borish darajasi hali ham past: Belgiya, Fransiya, Germaniya, Ispaniya, Gollandiya, Buyuk Britaniya va AQShda kompaniyalarning qariyb 40 foizi kiber sug'urta polisiga ega, Avstraliyada - taxminan 20%[3]. Tesla o'z mijozlarining haydash uslubi va ularning transport vositalari haqida

2-jadval

1981-2021 yillara dunyo sug'urta bozorida hayot sug'urtasidan boshqa sug'urtalari (non-life) bo'yicha to'pangan sug'urta mukofotlari dinamikasi*

Ko'rsatkichlar	1981	1986	1989	1996	1999	2001	2007	2015	2017	2021	+/-%
Sug'urta mukofotlari dinamikasi, %	2	24	5	1	4	6	8	0	5	8	+6
Sug'urta mukofotlari, trln. AQSH doll.	0,31	0,50	0,60	0,70	0,80	1,00	1,90	2,55	3,00	3,9	1147

*OECD ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

1981 yildan 2021 yilgacha bo'lgan davrda jahon sug'urta bozorining hayot sug'urtasidan boshqa turlari (non-life) bo'yicha to'plangan sug'urta mukofotlarining o'sish sur'ati 1147% ni tashkil etgan (0,31 trln. dan 3,9 trln. AQSh dollarigacha o'sish) (2-jadval).

1980-2021 yillar oralig'ida dunyo sug'urta bozorida to'plangan sug'urta mukofotlari dinamikasining mintaqalar bo'yicha taqsimotini Swiss Re Institute ma'lumotlari asosida tahlil qilganimizda ma'lum bo'ldiki, ko'rib chiqilayotgan davrda dunyo sug'urta bozorida jami to'plangan sug'urta mukofotlarida Shimoliy Amerika ulushining sezilarli pasayishi (37,00 dan 22,50% gacha) yuz bergan bo'lib (AQSh sug'urta bozori, aksariyat ko'rsatkichlar bo'yicha dunyo miqyosida etakchi mavqega ega.[6]), EMEA (EMEA - Evropa, Yaqin sharq va Afrika) ulushida o'sish yuz berganligini (30,42 dan 37,63% gacha) ko'rish mumkin. Ushbu o'sish Yaqin sharq va Afrika mamlakatlaridagi o'sish hisobiga yuz bergan. Ushbu davrda Osiyo mamlakatlari ulushining ham o'sishi yuz bergan (30,48 dan 37,05% gacha) (3-jadvalga qarang) [7]. Osiyo bozorlari ulushining o'sishi birinchi navbatda hayotni sug'urtalash mukofotlari ulushining oshishi bilan bog'liq bo'lganligini ta'kidlash mumkin. Ushbu segmentda Osiyo Shimoliy Amerikadan ustun bo'lib, uning ulushi 30,48% dan 37,05% gacha oshgan.

3-jadval

1980 va 2021 yillara dunyo mintaqalari sug'urta bozorlarining hayot sug'urtasi (life) bo'yicha to'plagan sug'urta mukofotlari ulushi dinamikasi*

Mintaqalar	1980 yil	2021 yil	O'sish/kamayish
AQSh va Kanada	37,00	22,50	-14,50
Evropa, Yaqin sharq va Afrika	30,42	37,63	+7,21
Osiyo	30,48	37,05	+6,57
Lotin Amerikasi va Karib dengizi	0,57	2,20	+1,63
Okeaniya	1,52	0,62	-0,90

*Swiss Re Institute ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Shimoliy Amerika hayot sug'urtasidan boshqa sug'urta turlari (non-life) bo'yicha dunyo sug'urta bozorida etakchi bo'lib, ushbu mamlakatning mazkur segment bo'yicha global sug'urta bozorida to'plagan sug'urta mukofotlarining hissasi 55,2% dan 57,09% ga oshgan. Biroq, ushbu segmentda Osiyo mintaqasining ulushi sezilarli darajada o'sib, 7,54% dan 16,6% ga etdi. EMEAning ushbu segmentdagi ulushining kamayishi yuqori darajada bo'lib, bu 10,75 foizni tashkil etgan (4-jadvalga qarang).

4-jadval

1980 va 2021 yillara dunyo mintaqalari sug'urta bozorlarining hayot sug'urtasidan boshqa sug'urta turlari (non-life) bo'yicha to'plagan sug'urta mukofotlari ulushi dinamikasi*

Mintaqalar	1980 yil	2021 yil	O'sish/kamayish
AQSh va Kanada	55,20	57,09	+2,11
Evropa, Yaqin sharq va Afrika	33,12	22,37	-10,75
Osiyo	7,54	16,60	+9,06
Lotin Amerikasi va Karib dengizi	2,54	2,22	-0,32
Okeaniya	1,61	1,72	+0,11

*Swiss Re Institute ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

1980 yildan 2021 yilgacha bo'lgan davrda AQSh va Kanadada sug'urta mukofotlarining umumiy o'sish sur'ati 1090% ni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda Shimoliy Amerika bozorida to'plangan sug'urta mukofotlari hajmi har yili barqaror ijobiy o'sish sur'atlarini ko'rsatgan. Faqatgina istisno 2009 yilgi inqiroz yilida bo'lib, mazkur yilda bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 4 foizga kamaygan[7]. Ushbu pasayish hayotni sug'urtalash segmentida sug'urta mukofotlarining sezilarli darajada kamayishi bilan bog'liq bo'lgan. Ushbu segmentda Amerika Qo'shma Shtatlari va Kanada sug'urta bozorlarida to'plangan sug'urta mukofotlarining dinamikasi global tendensiyaga mos keladigan hayot sug'urtasidan boshqa sug'urta turlari segmentiga qaraganda yuqori o'zgaruvchanlik va inqirozlarga beriluvchanlik xususiyatiga ega. Hayotni sug'urtalash bozorining fond bozori bilan yuqori darajada o'zaro bog'liqligi tufayli 2009 yilda AQSh va Kanadada hayotni sug'urtalash mukofotlarining salbiy o'sish sur'ati -13% ni tashkil etgan.

katta hajmdagi ma'lumotlar mavjudligi sababli an'anaviy sug'urtalovchilarga qaraganda 20-30% past narxda avtomobil sug'urtasini taklif qildi[3]. Shuning uchun BigTech kompaniyalari an'anaviy sug'urtalovchilar uchun jiddiy raqobatchi hisoblanadi: World Insurance tomonidan o'tkazilgan tadqiqoti jarayonida amalga oshirilgan so'rovnomalarga ko'ra, BigTech dan sug'urta sotib olishlarini aytgan respondentlarning ulushi 2016 yilda 17% ni tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilga kelib bunday respondentlar ulushi 36% ga etdi[4]. O'rnatilgan sug'urta uchun eng yirik bozor Osiyo-Tinch okeani mintaqasi hisoblanadi. Prognozlariga ko'ra, 2022-2029 yillarda ushbu mintaqada o'rnatilgan sug'urta sanoatining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 21,6% ni tashkil etadi va 2029 yilga kelib bunday sug'urtadan olingan daromad taxminan 71,8 milliard dollarni tashkil etadi[5].

Tadqiqotni amalga oshirishda foydalanilgan usullar (Methods/Методы).

Mazkur maqolada global sug'urta bozori, uning xususiyatlari va ishtirokchilari, mazkur bozor va milliy sug'urta bozorlarining o'zaro integratsiyalashuvi, dunyo mamlakatlarida moliyaviy nobarqarorlik sharoitida sug'urta kompaniyalari faoliyatida yuz berayotgan tendensiyalarning ijobiy va salbiy jihatlari masalalari empirik va statistik, taqqoslash usullari yordamida tadqiq qilindi.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты. Analysis and results).

So'nggi yillarda global moliya bozori segmentlari va milliy bozorlarning o'zaro bog'liqligi ortib bormoqda va o'z o'rnida global moliyaviy beqarorlik kuchaymoqda, bu global sug'urta mukofotlari dinamikasida aks etadi: bu inqiroz yillarida o'zgaruvchanlik va salbiy o'sish sur'atlari yuz berganligini namoyish etdi. Shunisi e'tiborga loyiqlik, 2020 yilgi inqirozda global sug'urta mukofotlari hajmining dinamikasi avvalgi inqirozlar davridagi kabi dramatik bo'lmadi (mukofotlarning o'sish sur'ati 1,05% ni tashkil etdi, 2009 yilgi inqirozda mukofotlar hajmi deyarli 2% ga kamaygan edi). Bizning fikrimizcha, bu dinamikaning sababi inqirozlar tabiatidagi farqlarda yotadi. 2009 yildagi inqirozning manbai iqtisodiyotning moliya sektori bo'lib, bunda jahon bank tizimi va jahon fond bozori eng jiddiy zarar ko'rgan edi. Moliya bozori sektorlarining o'zaro bog'liqligi mazkur krizisning sug'urta sektoriga ta'sir qilmasligi mumkin emas edi. COVID-19 pandemiyasi sabab bo'lgan 2020 yilgi inqirozga kelsak, uning ta'siri iqtisodiyotning real sektori va xizmat ko'rsatish korxonalarining ayrim turlari (turizm, mehmonxona va restoran xo'jaligi va boshqalar) uchun eng sezilarli bo'ldi, ammo moliya sektori kamroq zarar ko'rdi.

1-jadvalda ko'rsatilgan ma'lumotlar shuni anglatadiki, 1981 yildan 2021 yilgacha bo'lgan davrda hayot sug'urtasi segmenti sug'urta mukofotlari global hajmining o'sish sur'ati 1463% ni tashkil etdi (o'sish 0,19 trln. dan 3 trln. gacha). Ta'kidlash kerak, ushbu o'tgan 41 yillik davrda dinamikada o'zgaruvchanlik sezilib turgan va 7 marta sug'urta mukofotlari dinamikasida pasayish yuz bergan bo'lsa, qolgan 34 yilda o'sish kuzatilib, jami 1463 % yoki 15,79 barobar o'sish yuz bergan.

1-jadval

1981-2021 yillara dunyo sug'urta bozorida hayot sug'urtasi (life insurance) bo'yicha to'pangan sug'urta mukofotlari dinamikasi*

Ko'rsatkichlar	1981	1986	1989	1996	1999	2001	2007	2015	2017	2021	1981/2021 +/-%
Sug'urta mukofotlari dinamikasi, %	6	45	3	-2	11	-5	14	-4	6	10	+4
Sug'urta mukofotlari dinamikasi, trln. AQSH doll.	0,20	0,50	0,65	1,20	1,50	1,51	2,50	2,55	2,65	3,0	1460

*OECD ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

Biroq, hayot sug'urtasi segmentidagi sug'urta mukofotlarining dinamikasi hayot sug'urtasidan boshqa sug'urta segmentiga qaraganda ancha katta o'zgaruvchanlikni (2-jadval) va inqiroz yillarida sezilarli darajada salbiy o'sish sur'atlarini ko'rsatadi, bu hayotni sug'urtalash bozori inqiroz ta'siriga ko'proq moyil degan xulosaga kelish uchun asos bo'lishi mumkin. Bizning fikrimizcha, bu hayotni sug'urtalash segmentining moliya bozorining boshqa tarmoqlari (fond bozori va bank sektori) bilan o'zaro bog'liqligi, shuningdek, hayotni sug'urtalash mahsulotlarining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Chunki, ular mablag'larning uzoq muddatli investitsiyalarini o'z ichiga oladi, shuning uchun inqiroz davrida rejalashtirish ufqining qisqarishi va yuqori darajadagi noaniqlik tufayli uzoq muddatli investitsiyalarni rad etish natijasida mijozlarning ushbu segmentdan chiqib ketish holati mavjud.

2009 yildagi inqiroz davrida AQSh va Kanadada sug'urta bozorlari sezilarli darajada kamroq zarar ko'rdi: 2009 yilda ushbu segmentdagi sug'urta mukofotlari hajmi nolga yaqin bo'lsada, ammo ijobiy o'sish sur'atiga ega bo'ldi (+0,4%). Boshqa inqiroz yillarida (shu jumladan 2020 yilgi pandemiya) u barqaror ijobiy o'sish sur'atlariga ega bo'ldi.

AQSh va Kanadada hayot/hayotdan tashqari sug'urta mukofotlari tarkibiga kelsak, jami sug'urta mukofotlarining deyarli 76,5% hayotni sug'urtalash hisobiga to'g'ri keladi va ushbu segmentdagi sug'urta mukofotlari ulushining yana o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda (1980 yilda uning ulushi 70,7% bo'lgan[7]).

EMEA mintaqasida jami sug'urta mukofotlari dinamikasi Shimoliy Amerikanikidan farq qiladi. Umumiy tendensiya - bu 1980-yillarning o'rtalaridan 1990-yillarning o'rtalariga qadar bo'lgan davrda mukofotlarning yuqori o'sish sur'atlari bilan tavsiflanadi, bu bizning fikrimizcha, moliyaviy konvergensiya ta'siri ostida sug'urta bozorlarining o'sishi bilan bog'liq bo'lgan global tendensiyani tasdiqlaydi. Biroq, EMEA sug'urta mukofotlari dinamikasi juda yuqori o'zgaruvchanlik bilan tavsiflanadi, iqtisodiy tiklanish davrida yuqori o'sish sur'atlari va inqiroz hodisalari bilan bog'liq mukofotlarning tez-tez tushishi holatlari kuzatilgan. 1980 yildan 2021 yilgacha bo'lgan davrda jami sug'urta mukofotlarining o'sish sur'ati 1138% ni tashkil etgan bo'lib, 2008-2009 yillardagi inqirozdan keyin EMEA sug'urta mukofotlarining o'sish sur'ati inqirozgacha bo'lgan darajaga qaytmagan. 2009 yildan keyin mukofotlarning navbatdagi pasayishi 2012 va 2015 yillar, shuningdek 2020 yildagi inqirozlar paytida kuzatilgan. Sug'urta mukofotlari hajmidan kelib chiqib, so'nggi o'n yillikni mintaqadagi sug'urta bozorining turg'unlik davri deb atash mumkin.

Bizning fikrimizcha, yuqorida tavsiflangan EMEA sug'urta mukofotlari dinamikasining bir necha sabablari bor. Birinchidan, Shimoliy Amerikadan farqli o'laroq, EMEA mintaqasi ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarni o'z ichiga oladi, bu erda aholining daromad darajasi va sug'urta madaniyati darajasi ancha past va shuning uchun bunday mamlakatlarda sug'urta mahsulotlariga talab yuqori egiluvchanlik bilan tavsiflanadi. Shu munosabat bilan, inqiroz davrida mintaq aholisining katta qismi sug'urta xarajatlarini kamaytiradi.

Ikkinchi, muhimlik darajadasi kam bo'lmagan sabab - bu mintaq sug'urta bozorining hayot va hayotdan tashqari segmentlari bo'yicha tuzilishi bilan bog'liq. EMEA davlatlarida to'planayotgan sug'urta mukofotlarining 57% hayot sug'urtasi hissasiga to'g'ri keladi. Evropada (bu EMEA sug'urta mukofotlarining katta qismini tashkil qiladi) hayotni sug'urtalash nafaqat fond bozori, balki bank sektori bilan ham chambarchas bog'liq. 1970-yillarning oxiri va 1980-yillarning boshidan beri hayotni sug'urtalash mahsulotlari Evropa mamlakatlarida bank kanali orqali sotilgan. O'shandan beri hayotni sug'urtalash bo'yicha sug'urta mukofotlarining umumiy EMEA sug'urta mukofotlaridagi ulushi o'sib borgan. 1980 yildan 2021 yilgacha u 36,25% dan 56,62% gacha o'sgan.

Ko'rib chiqilayotgan davrda Osiyoda sug'urta mukofotlarining o'sish sur'ati Shimoliy Amerika va EMEAg qaraganda yuqori bo'lgan va 2042% ni tashkil etgan. Osiyo mintaqasidagi sug'urta mukofotlarining ushbu dinamikasi rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlarida, xususan, Xitoyda juda yuqori o'sish sur'atiga ega bo'lgan (1980 yildan 2021 yilgacha bo'lgan davrda +22331%). Shuni ta'kidlash kerakki, ushbu mamlakatlarda sug'urta mukofotlarining o'sish sur'atlariga birinchi navbatda ma'lumotlar bazasining katta emasligi ta'sir ko'rsatgan, chunki 1980 yilda ushbu mamlakatlarning sug'urta bozorlari hali rivojlanishning dastlabki bosqichida edi: 1980 yilda sug'urta mukofotlari hajmi qariyb 4 milliard dollarni tashkil etdi. Biroq, 2021 yilda bu ko'rsatkich juda muhim qiymatga etdi - 925,5 milliard AQSh dollari. Rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlaridagi sug'urta mukofotlari ko'rib chiqilayotgan davrning barcha yillarida barqaror ijobiy o'sish sur'atlarini ko'rsatdi, 1998 yildagi inqiroz bundan mustasno, Osiyo mamlakatlaridagi fond bozorlari va bank tizimlarining qulashi sug'urta sektoriga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Osiyo mintaqasida hayot sug'urtasi va hayot sug'urtasidan boshqa segmentlar bo'yicha sug'urta mukofotlari tarkibiga kelsak, ushbu

mintaqada, shuningdek EMEAda hayotni sug'urtalash tarmog'i ustunlik qiladi. Biroq, sug'urta mukofotlarining umumiy hajmidagi hayot sug'urtasining ulushi 1980 yildagi 71,46 % dan 2021 yilga kelib 63,4 % gacha pasayish tendensiyasi kuzatildi[7], bu ushbu mamlakatlarda hayot sug'urtasidan boshqa sug'urta turlarining bosqichma-bosqich rivojlanayotganidan dalolat beradi.

Shunday qilib, Osiyo mintaqasida sug'urta mukofotlari hajmining o'zgaruvchanligi, EMEAda bo'lgani kabi, asosan hayotni sug'urtalashning ustunligi bilan bog'liq. Rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlariga kelsak, ushbu mamlakatlarda sug'urta mukofotlari dinamikasi asosan Xitoydagi sug'urta mukofotlari dinamikasi bilan belgilanadi. Bu hayot sug'urtasi segmentining ustun rivojlanishiga qaramay, kamroq o'zgaruvchanlikka ega bo'lib, bu bizning fikrimizcha, bir necha sabablarga bog'liq.

Birinchidan, "Xitoy muvaffaqiyatining siri" Xitoy globallashuvining o'ziga xos xususiyatlarida yotadi. Birinchi xususiyat - shok terapiyasini rad etish. Xitoyda globallashuv bosqichma-bosqich yuz berdi. Dastlab Xitoyning janubida 4 ta hududiy iqtisodiy zonalar tashkil etildi. Keyin ba'zi sanoat tarmoqlari chet el kapitali uchun ochildi va JSTga a'zo bo'lganidan atigi 5 yil o'tgach, Xitoy o'zining butun hududini va barcha sohalarni chet el kapitaliga ochdi[8]. Moliya sektoridagi so'nggi o'zgarishlar faqat 2007 yilda sodir bo'ldi. Globallashuv dasturini amalga oshirish shakllari ham bosqichma-bosqichlik bilan ajralib turardi. Dastlabki bosqichlarda iqtisodiyotda xorijiy kapital bilan aralashgan qo'shma korxonalar, so'ngra faqat xorijiy investisiyalar ishtirokidagi chet el korxonalari tashkil etildi. Ikkinchi xususiyat shundaki, Xitoy ichki islohotlarni amalga oshirmagunicha ochiqlikka yo'l qo'yib bermadi. Va nihoyat, Xitoyning globallashuv modeli o'zining ijobiy tomonlarini maksimal darajada oshirishga va islohot hamda ochilish siyosatining kamchiliklarini minimallashtirishga harakat qildi. Shu tufayli Xitoy o'z suverenitetini ehtiyotkorlik bilan himoya qildi va uning iqtisodiyoti boshqa mamlakatlardan tarqaladigan inqirozlarga nisbatan bardoshlilik ortdi.

Ikkinchidan, Xitoy sug'urta bozori hayot sug'urtasi segmentining bank sektoriga bog'liqligi Evropadagi kabi yuqori emas (bank sug'urtasining umumiy mukofotlardagi ulushi pasayish tendensiyasini ko'rsatdi va 30% dan kam ko'rsatkichga ega).

Uchinchidan, Xitoy hayot sug'urtasi segmentining fond bozoriga bog'liqligi Evropadagi kabi yuqori emas, chunki hayotni sug'urtalash mukofotlarining umumiy hajmida investisiya bilan bog'liq sug'urta mahsulotlarining ulushi 1% dan kam (Evropaning turli mamlakatlarida unit-linked sug'urtaning ulushi 10% dan 60% gachani tashkil qiladi[9]).

2005 yildan 2021 yilgacha sug'urta mukofotlari bo'yicha dunyoning etakchi o'ntaligiga kirgan mamlakatlar tarkibini ko'rib chiqayotganda, Evropa mamlakatlarini siqib chiqaradigan Osiyo mamlakatlari sonining ko'payishi va Xitoy reytingida katta sakrash mavjudligi ma'lum bo'ldi. Agar 2005 yilda Xitoy etakchi 10 mamlakat qatoriga kirmagan bo'lsa, 2010 yilga kelib u allaqachon reytingda oltinchi o'rinni egallagan va 2021 yilda ikkinchi o'ringa ko'tarilib, Yaponiyani ushbu pozitsiyadan chiqarib yuborgan. 2021 yilda Xitoyning ulushi 2010 yilga nisbatan 2 baravar oshdi va global sug'urta mukofotlarining 10,1 foizini tashkil etdi. Shuningdek, 2021 yilda yana bir Osiyo mamlakati Hindiston kuchli o'nlikka kirib, o'ninchi o'rinni egalladi. Top-10 ga kirgan mamlakatlar ichida Osiyo mamlakatlarining hisssasi 2005 yilda 16,33% ni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yilga kelib ushbu mamlakatlarning hisssasi 20,7% ni tashkil etdi.

Xulosa (Заключение/ Conclusion).

Shunday qilib, raqamlashtirish davri global sug'urta bozorini sug'urta mahsuloti tikliflarini individuallashirishga transformasiya qildi, bu bizning fikrimizcha sug'urtalovchilarga yangi voqelikka moslashishga yordam beradi va mijozlarning o'zgaruvchan ehtiyojlarini qondirish hamda raqobatbardosh pozitsiyalarni saqlab qolish uchun samarali vosita hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (Литература/ References):

1. Cyber Risk Underwriting. Identified Challenges and Supervisory Considerations for Sustainable Market Development. [Electronic resource] // IAIS. - Mode of access: https://www.iaisweb.org/uploads/2022/01/201229-Cyber-Risk-Underwriting_Identified-Challengesand-Supervisory-Considerations-for-Sustainable-Market-Development.pdf

2. Cyber Risk Underwriting. Identified Challenges and Supervisory Considerations for Sustainable Market Development. [Electronic resource] // IAIS. - Mode of access: https://www.iaisweb.org/uploads/2022/01/201229-Cyber-Risk-Underwriting_-Identified-Challengesand-Supervisory-Considerations-for-Sustainable-Market-Development.pdf
3. Why insurers need to transform digital distribution and how to do it in the digital age. [Electronic resource] // Swiss Re Institute. – Mode of access: <https://www.swissre.com/institute/research/topics-and-risk-dialogues/digital-business-model-andcyber-risk/why-insurers-need-to-transform-digital-distribution.html>
4. Asia Pacific Embedded Insurance Business and Investment Opportunities [Electronic resource] // Research and Markets. – Mode of access: <https://www.researchandmarkets.com/reports/5547760/>.
5. OECD maълумотлари, <https://www.oecd.org>
6. Qo'ldoshev, Q. (2023). SUG'URTA FAOLIYATINI DAVLAT TOMONIDAN NAZORAT QILISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR VA BU BORADAGI CHET EL TAJRIBALARINI QO'LLASH MASALALARI . Страховой рынок Узбекистана, 1(2), 12–15. извлечено от <https://insurance.tsue.uz/index.php/journal/article/view/26>
7. Swiss Re Institute ma'lumotlari, <https://www.swissre.com>
8. Лукашова Е.А. Влияние глобализации на развитие экономики Китая [Elektron manba] // Rossiya Tabiiy fanlar Akademiyasi. – Kirish yo'li: <https://www.scienceforum.ru/2017/2265/26201>
9. European Insurance in Figures [Electronic resource] // Insurance Europe. – Mode of access: <https://www.insuranceeurope.eu/statistics>.